

YETUKLIK DAVRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Andijon davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar fakulteti, kimyo yo‘nalishi 1-bosqich talabalari,
Turg‘unova Muslima Bozorboy qizi,
Rustambekova Muhsina Jo‘rabek qizi,
Biologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.
Kelsinova Jayrona Nosirjon qizi

Annotatsiya: Maqolada shaxsning ontogenezdagi nisbatan uzoq davom etadigan yetuklikning umumpsixologik tavsifi, bu davrdagi inqiroz, mas’uliyat va ijtimoiy faollik hamda keksalik davrida emotsional sohaning xususiyati, ijtimoiy faoliyat tizimini o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qobiliyat, inqiroz, ijtimoiy faoliyat, biologik qarish, ko‘rish chegarasi, aktiv reaksiyalar.

Kirish: Yetuklik davrida odam o‘zining barcha kuch quvvagti, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o‘z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga to‘la safarbar qila oladi. Erakak va ayollarning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatida muayyan tajribaga egaligi ularni istiqlol sari yetaklaydi. Yetuk shaxsning boshqalarga munosabati, ularni baholash, dinamik stereotipida sezilarli o‘zgarishlar bo‘ladi.

Yetuklikning turli davrilarda kamol topish jabhalarining o‘zaro munosabatini tadqiq qilgan B.G Anan‘yev laboratoriyasi xodimlari 29-32 yoshlarda funksional darajaning oshishi 46,2 barqarorlashuvi 15,8 funksional darajaning pasayishi 38,0, 33-35 yoshlarda mos ravishda 11,2; 33,3 va 55,5% ni tashkil qilishini aniqlashgan.

Yetuklik bosqichida jismoniy va aqliy imkoniyatlardan to‘laroq foydalanish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Y Kulytkin tadqiqotning natijasiga qaraganda, 30-35 yoshlarda diqqat 102,8 xotira 99,5 tafakkur 102,3 birlikka baravardir. Yetuklik davri faoliyatining mahsuldorligini o‘rgangan G. Leman uning cho‘qqisi kimyogarlarda 30 yosh, matematiklarda 30-34,geologlarda va astronomlarda 30-35 yosh ekanligini va o‘rtacha mahsulot cho‘qqisi 37 yoshda bo‘lishini qayd qilgan.

Amerikalik psixolog S.Xool Keksayish monografiyasida amaliy va metodologik ahamiyatiga moillik qator g‘oyalarni ilgari surgan.

I.V. Davidovskiy Keksayish nima? Nomli asarida ta’lidlaganidek, inson 50-60 yoshga to‘lganda yoki undan oshgan chog‘ida yetuklikning kechikkan davriga kirib keladi. Shu yoshdagi odamlarning o‘limini XVIII asrdagi tengdoshlari bilan taqqoslansa, ularning yashash va mehnat qilish imkoniyati 75 yoshgacha uzayishi mumkin. Chunki hozirgi kunda nafaqani belgilash haqiqiy biologik qarish yoshidan 15-20 yil ilgarilab ketgan. Bu hol aqliy mehnat bilan shug‘ullangan ziyoli odamlarda yaqqol tashlanadi. I.V. Davidovskiyning fikricha, uzoq umr ko‘ruvchilar asosan ozg‘in, faol, harakatchan odamlar bo‘lib, havodan erkin nafas olishni juda yoqtiradilar, tinka quritar kasalligidan holi bo‘ladilar.[1]

Yetuklik yosh davridagi odamlarning ko‘rish maydonini o‘rgangan L.N.Kulnova va M.D.Aleksandrovalar 36-65 yoshli erkaklarda ko‘rish chegarasi quyidagicha ekanini aniqlaganlar: Normadan ortiq 4%, normada 53%, qolganlari normadan kam. Yu.N.Kulyutkin 36-40 yoshli sinaluvchilarda diqqat, xotira, tafakkurning 0-130 gacha shkalada 94,8, 93,7, 99,0 birligiga ega ekanligini isbotlab berdi. B.G. Ananov esa mazkur yoshdagilarda shaklni idrok qilishni bipopulyar va mopopulyar yo‘llarida muayyan darajada tafovutlar yuzaga kelishini aytadi.[2]

Keksalik-organizm hayotining yoshga bog‘liq muayyan bir davri, muqarrar ravishda yuz beradigan jarayon. A‘zo va sistemalarda o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y berib boradi, bu esa asta-sekin organizmning hayotga moslashuv imkoniyatlari susayishiga olib

keladi. Odamlarning qarilik davri 75 yoshdan keyin boshlanadi (90 yoshdan oshgan kishilar uzoq umr ko’ruvchilardir), bu fiziologik qarilikdir bunda aqliy va jismoniy quvvat, ma’lum ish qobiliyati, xushchaqchaqlik va atrofga qiziqish saqlanadi. Turli noxush tashqi va ichki ta’sirotlarga olib keladi. Qarish jarayoni, birinchi navbatda, yurak tomir va nerv sistemasiga ta’sir qiladi; bunda bir faoliyatdan ikkinchisiga o’tish qobiliyati qiyinlashadi. Tormozlanish jarayonining yetarli bo’lmashligi nerv sistemasi qo’zg’aluvchanligining oshishiga olib keladi, shu tufayli atrofdagi narsalarga moslanish va javob reaksiyalari sust ishlanib, sekin yo’qoladi; emotsional barqarorlik kuchayadi.[3]

Keksalik davridagi insonlarga emotsional sohada ham maxsus o’zgarishlar xos. Bu affektiv reaksiyalarning kuchayishi (kuchli qo’zg’alishlar), sababsiz xafa bo’lish, yig’lash va boshqalarda namoyon bo’ladi. Qariyalarda o’tmish qadriyat hisoblanadi. Keksalik davrida vaqtinchalik hayotiy rejalarning umumiy o’zgarishi ro’y beradi. Hozirgi hayot va o’tgan umr haqida tasavvurlar kelajak hayotga nisbatan muhim ahamiyatga ega.[4] Yetuklik davrida inqirozlarning kechishi, davomiyligi shaxsiy hayotdagi sharoitlarga bog’liqdir. Inqirozni kenskinlashtiradigan sharoitlar sirasiga sog’liqning to’saddan o’zgarishi (kutilmagan kasallik, uzoq kasallanish, garmonal o’zgarishlar), ijtimoiy va siyosiy hodisalar, talablarning, sharoitning va ijtimoiy kutilmalarning shakillarda namoyon bo’lishi mumkun.

Bu davrning “inqirozligi” haqida tasavvurga barcha tadqiqatchilar han qoshilamaydilar. 30 yoshlar – o’rta yetkulik, “oltin yoshga” o’tish yuqori darajada ishchanlik davri. 30 yosh – inqirozi tiolangan tajriba asosida hayotiy rejalarni korreksiya qilish vazifalari bilan bog’liq, kasbiy faoliyat va oilada tartibli va oqilona hayot strukturasi yaratish bilan bog’liqdir. 30 yoshdan keyin – “ildizlar va kengayish” – moddiy va yashash muammolarini hal qilish bilan bog’liq, hizmat pog’anasida ko’tarilish, ijtimoiy aloqalarini kengayishi, o’z kelib chiqishini tahlil qilish, ilgari rasd etilgan o’z Menini astasekin qabul qilish. 40 yosh inqirozi – hayot o’rtasining inqirizi bo’lib, keng tarqalgandir. Bu yosh davridagi inqirozning dastlabki belgilari ichki dunyoning o’zgarishi – ilgari muhim, qiziqarli deb hisoblagan narsalarga befarq munosabat namoyon bo’ladi. Identiklik inqirozi – o’ziga o’xshamaslik, boshqacha bo’lib qolganini his qilishda ko’rinadi. Inqiroz jismoniy kuchlari va yoqimtoyligining kamayayotganini his qilish bilan bog’liqdir.[5]

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichi 36-55 (60) yoshlardagi erkak va ayollarni o’z ichiga oladi. Mazkur davrda ijodiy faoliyatni qaytadan baholashda o’z ifodasini topuvchi yangi xislat namoyon bo’ladi. Ular shu kungacha mehnat faoliyatida miqdor ketidan quvib yurganbo’lsalar endi mehnat mahsulining sifatini ustida bosh qotira boshlaydilar. Oilaviy turmushga, ijtimoiy hayotga, yashashning maqsadiga, inson qadr-qimmatiga, tevarak atrofga, o’zlariga va boshqa odamlarga yangi mezon bilan qaraydilar. Umuman yetuklik davrining ikkinchi bosqichiga mansub kishilar bir tomondan, butun imkoniyatini mehnat va ijtimoiy faoliyatlarga bag’ishlagani bilan, ikkinchi tonondan, ijtimoiy faollikni susayib borishi bilan farqlanadi. Chunki insonning keksayishi ham quvonchli, ham o’kinchli damlarga, kechinmalarga his tuyg’ularga serobligi bilan ajralib turadi.[6]

Xulosa: Yoshlik davri insonni kuch - quvvatga, orzu - havasga ijodiy rejalarga, izlash va izlanishlarga, aqliy imkoniyatlarga, boy davrdir. Yetuklik, kattalik, donishmandlik, g’amxo’rlik, rahnamolik, homiylik davridir. Keksalik boshqa kishilarga begonalarga ham xayrixohlik bildirishdir. Ana shu yuksak insonparvarlik hissi tufayli ular yer yuzidagi jamiki inson zotiga yaxshilik tilaydilar. Qariyalardagi rahmdillik, poklik, orastalik, muloyimlik, samimiylik, singari tuyg’ularning ifodalanishi boshqa yosh davridagi odamlar tuyg’usiga aslo o’xshamaydi. Shuning uchun “qari bilganni – pari bilmas”- degan naql bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya”
2. abiturtest.uz
3. Wikipedia

4. azkurs.org
5. Nishonova.Z.T. “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya” Toshkent-2018
- 6.E.G’oziyev “Ontogenez psixologiyasi” Toshkent-2020